



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

TURLI EKISH MUDDATLARI VA MA'DAN O'G'ITLAR ME'YORLARINING G'O'ZA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

Xolmuminov Sherzod Xolnazarovich

Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Amaliy malekulyar genetika laboratoriyasi mudiri

Email: sherzod19842807@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-0431-5303>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli ekish muddatlari va ma'dan o'g'itlar me'yorlarining g'o'za hosildorligiga ta'siri o'rganilgan. Tajribalarda g'o'zaning uch xil ekish muddati hamda NPK o'g'itlarining turli me'yorlari sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekish muddati va ma'dan o'g'itlar me'yori g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi hamda paxta hosili shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Eng yuqori hosildorlik 5-10 aprel muddatida ekilib, o'rta tolali g'o'za navlarida N230P160K115 kg/ga me'yori qo'llanilgan variantda hamda ingichka tolali g'o'za navlarida N250P175K125 kg/ga qo'llanilgan variantlarda hosildorlik 41,8-44,0 s/ga ni tashkil etdi.

Kalit so'zlar: g'o'za, ekish muddati, ma'dan o'g'itlar, azot, fosfor, kaliy, paxta hosili, hosildorlik.

EFFECTS OF DIFFERENT PLANTING DATES AND MINERAL FERTILIZER RATES ON THE YIELD OF COTTON

Xolmuminov Sherzod Xolnazarovich

Head of the Applied Molecular Genetics Laboratory,

Research Institute of Fine-Fiber Cotton

Annotation. This article investigates the effects of different planting dates and mineral fertilizer application rates on cotton yield. The experiments evaluated three different planting dates and various application rates of NPK fertilizers. The research findings demonstrated that planting date and mineral fertilizer rates had a significant influence on cotton growth, development, and yield formation. The highest yield was obtained from planting during April 5-10, where the application of N230P160K115 t/ha-1 for medium-fiber cotton varieties and N250P175K125 t/ha-1 for fine-fiber cotton varieties produced yields ranging from 41.8 to 44.0 centners per hectare 4.18-4.40 t/ha-1.

Keywords: cotton, planting date, mineral fertilizers, nitrogen, phosphorus, potassium, cotton yield, productivity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i13/n01>

KIRISH. G'o'za O'zbekiston qishloq xo'jaligining yetakchi texnik ekinlaridan biri hisoblanadi. Paxta xomashyosi yetishtirish samaradorligini oshirishda ekish muddatlarini maqbul tanlash va mineral o'g'itlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. G'o'zaning erta yoki kech ekilishi uning o'sish va rivojlanish bosqichlariga ta'sir etib, ko'sak tugish va hosil shakllanishi jarayonlarida muayyan o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Mineral o'g'itlar, ayniqsa azot, fosfor va kaliy elementlari g'o'zaning vegetativ va generativ organlari rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu bois turli ekish muddatlari va o'g'it me'yorlarining g'o'za hosildorligiga ta'sirini o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI. G'o'zani maqbul ekish muddatda ekish, hamda maqbul mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish hosildorlikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

M.Yu.Yusupxo'jayeva tadqiqotiga ko'ra, g'o'zada mineral o'g'itlarni N₃₅₀, P₃₅₀, K₅₀₀ kg/ga (1:1:1,4) qo'llash hosildorlikni sezilarli oshirgan. Nazorat variantida 19,9 s/ga bo'lgan hosil, mazkur o'g'itlashda 29,8-30,0 s/gaga yetgan, ya'ni 50 % gacha ko'payishni aniqlagan [4].

H.Yusupov tadqiqotlariga ko'ra N₂₀₀ P₁₂₀ kg/ga me'yorida 60×20 tizimida bir ko'sak vazni 4,8-7,2 g, 60×15 tizimida 4,9-6,0 g ni tashkil qilgan. N₂₅₀ P₁₅₀ kg/gaga oshirilganda 60×20 tizimida 5,0-6,9 g, 60×15 tizimida 5,3-5,9 g bo'lgan. Agrotexnik tadbirlar va o'g'it miqdori hosilga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [1].

A.N.Sikalov o'zining ilmiy tajribasida bentonit loyqasini mineral o'g'itlar bilan aralashtirib getariga 0,5-15 tonna qo'llab moyli o'simliklardan bentonit loyqasi qo'llanilmagan nazorat variantga nisbatan 60-130 % gacha yuqori hosil yetishtirgan [3].

B.Xoliqov va boshqalar tadqiqotlariga ko'ra, tipik bo'z tuproqlarda bir dalani 96 yil davomida faqat g'o'za ekib olib borilgan tajriba muhim natijalar ko'rsatgan. Nazorat uchastkalarda, ya'ni o'g'itsiz yetishtirilganda, hosil faqat 10-17 s/ga atrofida bo'lgan, ammo N₂₅₀ P₁₇₅ K₁₂₅ kg/ga mineral o'g'it uzluksiz qo'llanganda hosildorlik 29-37 s/gaga oshgan. Xulosa shundaki, me'yorli va uzoq muddatli o'g'itlash bir xil ekinda ham tuproq unumdorligini saqlab qolish va barqaror hosil olishni ta'minlaydi, ya'ni intensiv yetishtirishda uzluksiz va ilmiy asoslangan o'g'itlashning ahamiyati yuqori[2].

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari g'o'zaning hosildorligi ekish muddati va mineral o'g'itlar me'yoriga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi (1-jadval).

20-25 mart muddatida ekilgan o'rta tolali g'o'za navlarini mavsum davomida N₁₈₀ P₁₂₀ K₉₀ me'yorda oziqlantirganimizda umumiy hosil 36,9-39,4 s/ga bo'lib, o'g'it me'yorini N₂₃₀ P₁₆₀ K₁₁₅ kg/ga oshirilgan variantlarda bu ko'rsatgich 39,6-40,0 s/ga yetdi. Shu muddatda ekilgan va mavsum davomida N₂₀₀ P₁₄₀ K₁₀₀, N₂₅₀ P₁₇₅ K₁₂₅ kg/ga me'yorlarda oziqlantirilgan ingichka tolali g'o'za navlarida hosildorlik 35,6-39,1 sentnerni yuqori o'g'it me'yorida esa 38,0-40,0 s/ga ni tashkil qildi. 5-10 aprel muddatida ekilgan o'rta va ingichka tolali g'o'za variantlarini ikki xil o'g'it me'yorida oziqlantirilib mavsum davomida parvarish qilinganda o'rta tolali navlar 40,0-41,6, 41,5-44,0 s/ga ni tashkil qilib birinchi muddatga nisbatan o'rtacha 3,1-4,0 s/ga yuqori hosil olindi.

Jadval-1

Turli muddatlarda ekish va mineral oziqlantirishning g'o'za navlari hosiliga ta'siri, s/ga. 2023 yil

T/r	Ekish muddatlari	Ma'dan o'g'itlarning yillik me'yorlari,			Qaytariqlar bo'yicha			O'rtacha
		N	P	K	I	II	III	
1	20-25.03	180	120	90	35,5	38,4	36,8	36,9
2		230	160	115	39,7	41,3	37,9	39,6
3		180	120	90	41,6	37,4	39,3	39,4
4		230	160	115	39,2	39,2	41,5	40,0
5		200	140	100	35,8	35,4	35,6	35,6
6		250	175	125	36,8	39,2	38,1	38,0
7		200	140	100	39,1	37,2	40,9	39,1
8		250	175	125	40,5	40,2	39,4	40,0

1	05.10.04	180	120	90	39,1	40,3	40,6	40,0
2		230	160	115	42,5	40,4	41,6	41,5
3		180	120	90	41,1	40,8	42,9	41,6
4		230	160	115	44,2	44,1	43,7	44,0
5		200	140	100	36,6	37,7	38,8	37,7
6		250	175	125	41,2	39,2	39,3	39,9
7		200	140	100	39,3	40,2	40,8	40,1
8		250	175	125	42,5	42,3	40,6	41,8
1	20-25.04	180	120	90	37,7	35,2	35,1	36,0
2		230	160	115	38,6	37,2	37,7	37,8
3		180	120	90	36,8	36,9	36,7	36,8
4		230	160	115	37,7	38,3	38,6	38,2
5		200	140	100	35,1	34,8	35,2	35,0
6		250	175	125	37,6	36,6	35,5	36,6
7		200	140	100	36,7	35,5	35,1	35,8
8		250	175	125	38,8	38,8	37,7	38,4

Uchinchi muddat ya'ni 20-25 aprelda ekilgan g'oz'ga navlarini yuqorida qayd etilgan o'g'it me'yorlarida oziqlantirilganda. O'rta tolali g'oz'ga navlari 36,0-36,8 sentner va ikkinchi o'g'it me'yorida 37,8-38,2 s/ga 1,8-2,0 sentner yuqori hosil olindi. Ingichka tolali g'oz'zada ikki xil o'g'it me'yorida hosildorlik 35,0-35,8; 36,6-38,4 sentnerni tashkil qildi. Kechki ekish natijasida g'oz'zaning o'suv davri qisqarib, ko'saklarning to'liq shakllanishi uchun qulay sharoit yetarli bo'lmaganligi hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki. G'oz'ga hosildorligi ekish muddatiga, o'g'it me'yoriga sezilarli darajada bog'liq ekanligi aniqlandi. Surxondaryo iqlim sharoitida g'oz'zadan yuqori hosil olish uchun 5-10 aprelda ekib ekish muddatiga ko'ra o'rta va ingichka tolali g'oz'ga navlarini N₂₃₀ P₁₆₀ K₁₁₅, N₂₅₀ P₁₇₅ K₁₂₅ kg/ga me'yorda qo'llanilganda hosil yuqori bo'lishi aniqlandi. Kechki ekish 20-25 aprelda ekilgan g'oz'ga navlarida esa hosildorligining pasayishiga olib keldi. Tajriba natijalari mineral o'g'itlar me'yorining oshirilishi ma'lum chegaragacha hosildorlikning ortishiga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yusupov H. Yangi istiqbolli g'oz'ga navlarining hosildorligiga ko'chat qalinligi va o'g'it me'yorining ta'siri // Agro ilm O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. - Toshkent, 2022. № 3 (81) -B. 6-7.
2. Xoliqov B., Yakubov F., Bozorov X., Maxmudov O., Boboqandov Sh. G'oz'zani muttasil hamda beda bilan almashlab ekishning paxta hosiliga ta'siri // Agro ilm O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. -Тошкент, 2023. № 2 (93) -B. 6-7.
3. Цыкалов А.Н. Влияние внесения бентонитов и минеральных удобрений на урожайность и качество семян подсолнечника в условиях степной зоны центрального Черноземья // Вестник Воронежского государственного аграрного университета. -Россия, 2016. № 3 (50) -С.42-46.
4. Юсупхўжаева М.Ю. Баланс азота поздней подкормки и ее влияние на величину и качество урожая хлопка-сырца: Автореф. Канд. Дисс...Т. 1983, С. 20.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.